

Faktoring shartnoma

20__ yil ____

____ -son

____ shahri

O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki (keyingi o‘rinlarda “Faktor agent” deb ataluvchi) nomidan 20__-yil “__”-____dagi ____-sonli ishonchnoma asosida ish yurituvchi ____ viloyati ____ BXM boshlig‘i ____ bir tomondan, ikkinchi tomondan ____ MChJ (keyingi o‘rinlarda “Mijoz hamkori” deb ataluvchi) nomidan Ustav asosida ish yurituvchi direktor ____ va uchinchi tomondan ____ (keyingi o‘rinlarda “Mijoz” deb ataluvchi) nomidan Ustav asosida ish yurituvchi direktor ____ ushbu Faktoring shartnomasini (keyingi o‘rinlarda “Shartnoma” deb ataladi) quyidagilar haqida tuzdilar:

1. Shartnoma predmeti

1.1. Mazkur shartnoma Mijoz hamkori va Mijoz o‘rtasida 20__-yil “__” ____da tuzilgan ____-sonli oldi-sotdi shartnoma bo‘yicha Mijoz hamkori tomonidan akseptlangan to‘lovni talab qilish huquqini Faktor agentiga beradi.

1.2. Mijoz hamkori oldi-sotdi shartnomasi bo‘yicha yuklangan tovarlar uchun Mijozdan pul mablag‘larini talab qilish huquqini ushbu shartnoma shartlariga ko‘ra qaytarib olinmaslik sharti bilan Faktor agentiga o‘tkazish majburiyatini oladi yoki pulni talab qilish huquqini Faktor agentiga o‘tkazadi.

Talab qilish huquqining Faktor agentiga o‘tishi natijasida Faktor agent shartnoma bo‘yicha Mijoz hamkorining o‘rnini egallaydi va to‘lovchidan to‘lovni amalga oshirishni talab qilish huquqiga ega bo‘ladi.

1.3. Faktor agent Mijoz hamkorini uning Mijozga bo‘lgan pul talabnomasi (hisobvaraqa faktura) bo‘yicha moliyalashtiradi, Mijoz esa shartnomada belgilangan muddat kelganda to‘lovni Faktor agentiga to‘lab beradi.

1.4. 20__ yil “__” ____da tuzilgan ____-sonli Bosh kelishuvga asosan Faktor agentiga beriladigan to‘lovni talab qilish shartlari:

Pul talabnomasining (hisobvaraqa faktura) umumiy summasi miqdori, jumladan pul talabnomasi bo‘yicha asosiy qarz miqdori ____ (____) so‘mni tashkil etadi.

Faktoring to‘lov muddati: qarzдорlik reyestri bo‘yicha ____ (____) kalendar kunini tashkil etadi.

Mijoz hamkori:

Tashkilotning nomi: ____ MChJ

Yuridik manzili: _____;

Elektron manzili: _____;

Mijoz hamkori to‘lov rekvizitlari: _____;

1.5. Ushbu shartnoma tuzilish paytida Mijoz hamkori mazkur shartnomaning 1.1–bandida ko‘rsatilgan shartnoma bo‘yicha barcha majburiyatlarini to‘liq bajargan.

1.6. Mijoz hamkori va Mijoz o‘rtasida to‘lovni talab qilish huquqini uchinchi shaxslarga o‘tkazishni ta‘qiqlash yoki cheklash to‘g‘risidagi kelishuv mavjud emas.

1.7. Mijoz faktoring xizmatidan foydalanganligi uchun Faktor agent xizmati uchun ushbu Shartnomaning 1.4-bandida ko‘rsatilgan pul mablag‘larining ____ (____) foizi ____ miqdorida diskont to‘laydi.

1.8. Shartnoma uch tomonlama imzolanganidan so'ng 3 (uch) bank ish kuni muddatida Faktor agent tomonidan mazkur shartnomaning 1.4-bandida ko'rsatilgan pul mablag'larining _____ (_____) foizi _____ miqdorida mijoz hamkorining hisobvarag'iga o'tkazib beriladi.

1.9. Mijoz tomonidan faktoringga oid to'lov talabnomasini qabul qilishning rad etilishi yoki to'lov muddatlariga amal qilinmasligi yoxud ushbu Shartnomada kelishilgan boshqa shartlarning bajarilmasligi oqibatida moliyalashtirilgan faktoringni Mijozdan to'liq undirib bo'lmasa, Mijoz hamkori yetishmagan faktoring mablag'ini Faktor agentiga qoplashga majbur hisoblanadi.

2. Faktoringni taqdim etish, moliyalashtirilgan mablag'ni qaytarish

va diskont to'lash shartlari

2.1. Faktoring xizmati yetkazib berilgan tovarni, bajarilgan ishni, ko'rsatilgan xizmatni moliyalashtirish uchun taqdim etiladi.

2.2. Faktoring xizmatining muddati, moliyalashtirilgan mablag' Mijoz hamkorining bank hisobvarag'iga o'tkazilgan kunni ham qo'shgan holda, ____ (_____) kalendar kunni tashkil etadi.

2.3. Faktoring mablag'ining moliyalashtirilishi Mijoz hamkorining mazkur Shartnomada ko'rsatilgan bank hisobvarag'iga pul o'tkazish yo'li orqali amalga oshiriladi.

2.4. Moliyalashtirilgan mablag'ni qaytarish va diskont summasini undirish ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq Mijoz tomonidan amalga oshiriladi.

3. Taraflarning huquq va majburiyatlari

3.1. Faktor agentining huquqlari:

a) Mijoz hamkoridan ham, Mijozdan ham ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini Faktor agent foydasiga bajarishni talab qilish;

b) shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab, Faktor agenti ushbu shartnoma bo'yicha topshirilgan pul talabini qabul qilish va oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha Mijoz hamkorining barcha huquqlariga ega bo'lish;

d) ushbu Shartnoma bo'yicha Mijoz tomonidan qabul qilingan majburiyatlarning bajarilmaganligi va/yoki lozim darajada bajarilmaganligi oqibatida paydo bo'lgan qarzdorlik belgilangan muddatda to'lanmagan taqdirda, Mijozni 10 bank ish kuni avval yozma ogohlantirgandan so'ng bajarilmagan pul talabiga nisbatan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 783-moddasiga asosan, Mijozning mahalliy va xorijiy banklardagi har qanday bank hisobvaraqlariga akseptsiz tarzda to'g'ridan-to'g'ri to'lov talabnomasi qo'yish orqali mablag'larni yechib olish;

e) Mijoz hamkori mazkur Shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarini buzgan holatlarda, moliyalashtirilgan mablag'ni zudlik bilan qaytarib berishni va tegishli diskont miqdori to'lanishini talab qilish;

f) ushbu Shartnomaning 1.4-bandida ko'rsatilgan qarzdorlik o'z vaqtida qaytarilmaganligi uchun Mijozdan, har bir muddati o'tgan kun uchun to'lov muddati kechiktirilgan summaning 0,1 foizi miqdorida, lekin muddati o'tgan qarzdorlikning 50 foizidan oshmagan miqdorda penya undirish;

g) Mijoz va Mijoz hamkori tomonidan, ushbu Shartnoma doirasida, korrupsion harakatlar bevosita yoki bilvosita sodir etilganligi aniqlansa, mazkur Shartnomani bir taraflama bekor qilish va qarzdorlik summalarini muddatidan oldin undirish huquqlariga ega.

3.2. Faktor agentning majburiyatlari:

a) Mijoz hamkorini mazkur Shartnomada ko'rsatilgan hajmda va shartlarda moliyalashtirishni ta'minlash;

b) Mijozdan ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq olingan mablag'ni Mijozning mazkur Shartnoma bo'yicha Faktor agenti oldidagi qarzini so'ndirishga yo'naltirish.

3.3. Mijoz hamkorining majburiyatlari:

a) mazkur Shartnoma imzolanadigan kundan kechiktirmasdan elektron faktoring platformasiga to'lanishi lozim bo'lgan hisobvara-q-faktura (ushbu hujjatning to'lov muddati o'tmagan bo'lishi lozim) va Xaridorga/mijozga yetkazib berilgan tovar (ko'rsatilgan xizmat) bo'yicha solishtirish dalolatnomasi joylashtirish;

b) agar pul talabi haqqoniy bo'lmasa (ya'ni Mijoz hamkori Mijozga buyurtma berilmagan tovarni jo'natgan bo'lsa, tovarida nuqson yoki kamchiliklar bo'lsa yoki yetkazib beruvchi xaridorga haqiqatda buyurtma qilingan tovarni yubormagan bo'lsa va hokazo), to'lov shartlaridan qat'iy nazar moliyalashtirilgan mablag'ni qaytarib berish;

d) o'zining qayta tashkil etilishi va/yoki tugatilishidan, bunday o'zgarish bo'lishidan kamida 10 kun oldin Faktor agentini xabardor qilish.

3.4. Mijozning huquq va majburiyatlari:

a) Faktor agentidan ham, Mijoz hamkoridan ham ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarishni talab qilish;

b) ushbu Shartnomaning 1.4-bandida ko'rsatilgan qarzdorlikni mazkur Shartnomada belgilangan muddatdan oldin qaytarish;

d). Mijoz ushbu Shartnomaning 1.4-bandida ko'rsatilgan qarzdorlikni mazkur Shartnomada belgilangan muddat ichida Faktor agentiga to'liq qaytarish majburiyatini oladi.

4. Taraflarning javobgarligi

4.1. Mijoz hamkori ushbu Shartnoma bo'yicha Faktor agenti foydasiga voz kechilgan pul talabining haqiqiyligi uchun javobgar bo'ladi.

4.2. Ushbu Shartnomaning 1.4-bandida ko'rsatilgan qarzdorlik o'z vaqtida qaytarilmaganligi uchun Mijoz, har bir kechiktirilgan kun uchun to'lov muddati o'tgan qarzdorlik qiymatining 0,1 foizi miqdorida, lekin muddati o'tgan qarzdorlikning 50 foizidan oshmagan miqdorda, Faktor agentiga penya to'laydi. Penyaning to'lanishi Mijozni qarzdorlikni qaytarish majburiyatidan ozod qilmaydi.

4.3. Ushbu Shartnomaning 3.3-bandi "d" kichik bandida qayd etilgan majburiyatni bajarmaganligi uchun Mijoz hamkori Faktor agentiga moliyalashtirilgan mablag'ning 1 (bir) foizi miqdorida jarima to'laydi.

4.4. Taraflar ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, ularga nisbatan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlik choralari qo'llaniladi.

5. Nizolarni hal qilish

5.1. Taraflar ushbu Shartnoma bo'yicha kelib chiqqan nizoni sudgacha hal qilish usullarini qo'llash, shu jumladan muzokara o'tkazish orqali bartaraf etishga haqli hisoblanadi.

5.2. Taraflar mazkur Shartnoma bilan bog'liq bo'lgan, muzokara yo'li bilan hal qilish mumkin bo'lmagan barcha nizolarni Faktor agenti (bank xizmatlari markazi) joylashgan joydagi tegishli sudda ko'rib chiqishga kelishib oldilar.

6. Fors-major holatlar

6.1. Ushbu Shartnomaga ko'ra qabul qilingan majburiyatlarni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taraf, agar bunga fors-major holat sabab bo'lganligini isbotlay olmasa, javobgar bo'ladi.

6.2. Fors-major holatlarga, ular oqibatida kelib chiqqan favqulodda, joriy sharoitda bartaraf etib bo'lmaydigan va oldindan kutilmagan vaziyatlar, agar ushbu vaziyatlar taraflarning mazkur Shartnomani bajarishga bevosita ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, quyidagilar kiradi:

a) tabiiy hodisalar (zilzila, yong'in, ko'chki, dovul, suv toshqini, epidemiya, qurg'oqchilik, portlash);

b) ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar (harbiy harakat, ish tashlash, ommaviy tartibsizliklar, qamal, moliyaviy sanksiyalar, shuningdek barcha darajadagi davlat organlarining qarorlari va O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan fors-major holat sifatida tan olingan va e'lon qilingan vaziyatlar).

6.3. Fors-major holat sodir bo'lishi oqibatida o'z majburiyatini bajarish imkoniyatiga ega bo'lmagan va javobgarlikdan ozod qilishni da'vo qiladigan taraf fors-major holat sodir bo'lganini ma'lum bo'lishi bilan ikkinchi va uchinchi taraflarni mazkur holat to'g'risida yozma ravishda xabardor qilishi shart.

6.4. Javobgarlikdan ozod bo'lish uchun asos sifatida qabul qilinadigan fors-major holat u sodir bo'lgan vaqtdan boshlab yoki agar xabar o'z vaqtida berilmagan bo'lsa, xabar berilgan sanadan e'tiboran kuchga ega bo'ladi. Xabar berilmasligi, majburiyatni bajarmagan taraf zimmasiga ko'rilgan zararni qoplash yuzasidan javobgarlikni yuklaydi.

6.5. Fors-major holatning 6 oylik muddat davomida saqlanib turishi mazkur Shartnomani bekor qilish uchun asos bo'ladi.

7. Korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlar

7.1. Taraflar ushbu Shartnomani tuzish, Shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng Shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oldi.

7.2. Taraflar ushbu Shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralari tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydi.

7.3. Har bir taraf ushbu Shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan Shartnoma bilan bog'liq munosabatlar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmagani, Shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishiga yo'l qo'yilmagani, taklif etilmagani, ularni berishga va'da qilinmagani, shuningdek, moddiy yoki har qanday turdagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganini (kelajakda bu turdagi harakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida taassurot qoldirilmaganini) kafolatlaydi.

7.4. Taraflar mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan har qanday vaqt va shaklda korrupsiya harakatlarini bevosita yoki bilvosita (shu jumladan, uchinchi shaxslar orqali) sodir etilishiga yo'l qo'ymaydi.

7.5. Qonunga xilof ravishda olingan daromadning legallashtirilishiga, shuningdek, agar mulk jinoiy faoliyatdan olingan daromad ekanligi tomonlarga ma'lum bo'lsa, uni o'tkazish, mulkka aylantirish yoki almashtirish yo'li bilan uning kelib chiqishiga qonuniy tus berish, bunday pul mablag'i yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyati, manbai, turgan joyini, tasarruf etish va ko'chirish usulini, pul mablag'iga yoki boshqa mol-mulkka bo'lgan haqiqiy egalik huquqini yoki uning kimga qarashlilikini yashirishga yo'l qo'ymaydi.

7.6. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir qilish uchun ta'magirlik qilish, undash, tazyiq o'tkazish yoki tahdid qilish holati bo'yicha bir taraf ikkinchi va uchinchi taraflarni hamda vakolatli davlat organlarini darhol xabardor qiladi.

7.7. Taraflar tovarlar, xizmatlar, ishlarni realizatsiya qilish va o'tkazishda yoki ularning manfaatini ko'zlab boshqa harakatlarni amalga oshiruvchi tomonlarning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslarga nisbatan quyidagi harakatlarni amalga oshiradi:

a) korrupsiyaviy harakatlarga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligi va korrupsiyaviy harakatlarga nisbatan murosasiz munosabatda bo‘lishi shartligi haqida ko‘rsatmalar va tushuntirishlar berish;

b) ulardan korrupsiyaviy harakatlarni amalga oshirish uchun vositachi sifatida foydalanmaslik;

d) ularga qonunchilik doirasida amalga oshirgan xizmatlari uchun belgilangan haq miqdoridan asossiz ravishda ortiqcha to‘lovlarni amalga oshirmaslik.

7.8. Taraflar ularning nazorati ostida bo‘lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslar tomonidan korrupsiyaga qarshi qo‘shimcha shartlarda belgilangan majburiyatlar buzilganligi holatlari haqida xabar berilganligi uchun ularga tazyiq o‘tkazilmasligini kafolatlaydi.

7.9. Agar bir tarafga boshqa tarafning ushbu Shartnomaning 7.4-bandida belgilangan majburiyatlarning buzilishiga yo‘l qo‘yganligi ma‘lum bo‘lib qolsa, ikkinchi va uchinchi taraflarni bu haqda zudlik bilan xabardor qiladi va tegishli choralar ko‘rilishi va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan xabardor qilishni talab qiladi.

7.10. Bir tarafning talabi bo‘yicha tegishli choralar ko‘rilmagan yoki ko‘rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf mazkur Shartnomani bir taraflama to‘xtatib turish, bekor qilish hamda zararni to‘liq qoplab berishni talab qilishga haqli.

8. Sanksiyalar ro‘yxatiga oid qo‘shimcha shartlar

8.1. Mijoz hamkori va Mijoz bank operatsiyalarini amalga oshirishda sanksiyalar ro‘yxati bilan bog‘liq cheklov va taqiqlarga qat‘iy rioya qilinishini ta‘minlaydi va kafolatlaydi.

Mazkur Shartnoma tuzilishi bilan Mijoz hamkori va Mijoz tomonidan sanksiyalar ro‘yxati bilan bog‘liq cheklov va taqiqlarga rioya qilinishi kafolatlangan hisoblanadi.

8.2. Mijoz hamkori va Mijoz sanksiyalar ro‘yxatiga kiritilgan shaxslar bilan, shuningdek ularning manfaatini ko‘zlab ish yuritishi mumkin degan asosli taxmin mavjud bo‘lgan har qanday shaxslar bilan kelishuv, bitim, shartnoma imzolamaydi.

8.3. Mijoz hamkori va Mijoz sanksiyalar ro‘yxatiga kiritilgan shaxslarga yoki ularning manfaati uchun har qanday kelishuv, bitim, shartnoma bo‘yicha to‘lovlarni amalga oshirmaydi.

8.4. Mijoz hamkorining va Mijozning Faktor agentiga taqdim etgan hujjat va ma‘lumotlari yolg‘on, ishonchsiz va/yoki noto‘g‘ri bo‘lib chiqsa yoki ushbu Shartnomada qayd etilgan shartlar Mijoz hamkori va Mijoz tomonidan bajarilmasa, Faktor agenti Mijoz hamkorining va Mijozning topshirig‘i asosida amalga oshirilgan bank operatsiyalari tufayli chiqib ketgan mablag‘ning qaytarilishi, band solinishi, muzlatilishi, yo‘qotilishi uchun javobgar bo‘lmaydi.

8.5. Mijoz hamkoriga va Mijozga sanksiyalar ro‘yxati asosida vakolatli organ, tashkilot yoki banklar tomonidan cheklov va taqiq choralari (pul mablag‘iga band solinishi, to‘lovning rad etilishi va boshqalar) qo‘llanganligi uchun Bank javobgar emas va sanksiyalar ro‘yxati bilan bog‘liq cheklov va taqiqlar tufayli ushbu Shartnoma bo‘yicha Faktor agenti o‘z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi natijasida Mijoz hamkoriga va Mijozga yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini olmaydi.

8.6. Faktor agenti Mijoz hamkorining va Mijozning boshqa davlatlar qonun hujjatlari bilan cheklangan yoki taqiqlangan bank operatsiyalarini banklar va/yoki kontragentlar foydasiga amalga oshirmaslik huquqiga ega. Bunday holda, tashqi savdo shartnomalari yuzasidan amalga oshirilmagan bank operatsiyalari bo‘yicha javobgarlikni Faktor agenti o‘z zimmasiga olmaydi.

8.7. Mijoz hamkorining va Mijozning topshirig‘ini bajarish tufayli Faktor agentiga nisbatan mulkiy/nomulkiy sanksiyalar qo‘llanilsa, Mijoz hamkori va Mijoz Faktor agentiga nisbatan qo‘llanilgan sanksiyalar natijasida kelib chiqqan zararni qoplab berish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

9. Yakuniy qoidalar

9.1. Taraflarning mazkur Shartnoma bilan tartibga solinmagan munosabatlari O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi hujjatlariga muvofiq tartibga solinadi.

9.2. Mazkur Shartnoma taraflar imzolagan kundan boshlab to taraflar tomonidan ushbu Shartnoma majburiyatlari to'liq bajarilgunga qadar amal qiladi.

9.3. Ushbu Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan uch nusxada tuzilgan bo'lib, tomonlarda bir nusxadan saqlanadi.

9.4. Ushbu Shartnoma shartlarini o'zgartirish, qo'shimcha kiritish yoki uni bekor qilinishi, tomonlar o'rtasida qo'shimcha kelishuv tuzish orqali amalga oshiriladi. Mazkur shartnomaga kiritiladigan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar yozma ravishda tuzilib, tomonlarning vakolatli vakillari tomonidan imzolangan va muhrlari bilan tasdiqlanganidan so'ng yuridik kuchga ega bo'ladi. Shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirishlar, qo'shimchalar va ilovalar mazkur shartnomaning ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi.

9.5. Ushbu Shartnoma taraflarning kelishuvi bilan, shuningdek O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa holda bekor qilinishi mumkin.

9.6. Ushbu Shartnomaning bekor qilinishi taraflarni u bekor qilingunga qadar bildirilgan o'zaro da'vosini (talabini) qondirish majburiyatidan ozod qilmaydi.

10. Taraflarning yuridik manzillari, bank rekvizitlari va imzolari

Faktor agenti:	Mijoz:
Nomi: _____	Nomi: _____
Manzil: _____	manzili: _____
STIR _____	STIR _____
Telefon: _____ Faks: _____	Tadbirkorlik sub'ektlari yagona davlat reestridagi ro'yxat raqami: _____
Elektron pochta manzili: _____	Telefon: _____ Faks: _____
Bank rekvizitlari: _____	Elektron pochta manzili: _____
Rahbar: _____	Bank rekvizitlari: _____
Muhr o'rni (imzo)	Rahbar: _____
	Muhr o'rni (imzo)

Mijoz hamkori:
Nomi: _____
manzili: _____
STIR _____
Tadbirkorlik sub'ektlari yagona davlat reestridagi ro'yxat raqami: _____
Telefon: _____ Faks: _____
Elektron pochta manzili: _____
Bank rekvizitlari: _____
Rahbar: _____
Muhr o'rni (imzo)

